

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINING INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINI
TA'MINLASH BO'YICHA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY
YO'NALISHLARI**

Narzulloyev Asliddin Adizjonovich

IIV Akademiyasi 3-kurs kursanti

Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning negizini inson manfaatlari himoya qilish, huquq va erkinliklari ta'minlash tashkil etadi. Bu borada juda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 22 iyundagi PF6012-sonli farmoni bilan tasdiqlangan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi bunga yaqqol misol bo'ladi. Milliy strategiyaning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini, umume'tirof etilgan xalqaro standartlar hamda O'zbekistonning inson huquqlari sohasidagi majburiyatlarini, shuningdek, BMTning ustav organlari va shartnomaviy qo'mitalarining tavsiyalarini hisobga olgan holda qonunchilikni takomillashtirish;

- 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishida parlament va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash, milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini inson huquqlari bo'yicha xalqaro majburiyatlarga muvofiqlashtirish;

- O'zbekistonning inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro reytinglar va indekslar (qonun ustuvorligi, norma ijodkorligi sifati, hukumat faoliyati samaradorligi, so'z va axborot erkinligi, jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurash, biznesni olib borish shartsharoitlari, global raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish va boshqalar) bo'yicha dunyodagi 50 ta yetakchi mamlakatlar qatoriga kirishini ta'minlash;

- Inson huquqlari buzilishlariga barham berish maqsadida sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash, prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish va odil sudlov tizimi vakolatlarini mustahkamlash, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha milliy institutlar faoliyati uchun keng sharoitlarni yaratish, inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatini monitoring qilish va baholashning milliy tizimini yanada rivojlantirish, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish;

- Shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni himoya qilishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektor faoliyatining ochiqligi va o'zaro hamkorligi samaradorligini oshirish, shuningdek, qonun ijodkorligi jarayonida fuqarolik jamiyati institutlari bilan maslahatlashuvlarni o'tkazish amaliyotini takomillashtirish;

• Jinoyatchilikning, ayniqsa odam savdosi, korrupsiya, qiynoqqa solish, uyushgan va transmilliy jinoyatchilikning oldini olish va bu illatlarga qarshi kurashish, shuningdek, ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar va mahkumlarni saqlash joylari tizimida odil sudlovga va inson huquqlariga rioya etilishini ta'minlash;

• Aholining imkoniyati cheklangan, kam ta'minlangan guruhlar huquqlarini BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining "hech kimni orqada qoldirmaslik" tamoyiliga muvofiq himoya qilishni ta'minlash, davlat va jamiyatning alohida himoyasiga muhtoj bo'lgan shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxslarni ijtimoiy qo'llabquvvatlash hamda ularga xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish;

• Din, so'z va fikr erkinligi, ma'lumot olish, kamsitishga yo'l qo'ymaslik, gender tenglikni ta'minlash, barchaning sifatli ta'lim va tibbiy xizmatlardan teng foydalanishi, keksa odamlarning ijtimoiy integratsiyasi, bolalar, yoshlar, ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar va migrantlar huquqlarini himoya qilish sohalarida huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirish;

• Oila institutini, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish, oilada zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashishni huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa jihatlardan qo'llab-quvvatlash darajasini oshirish;

• Insonning iqtisodiy huquqlarini ta'minlash, xususiy mulkchilik va davlat-xususiy sheriklik aloqalarini rivojlantirish;

• Ta'limning sifati va barcha darajadagi qamrovini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, o'qitish tizimining inklyuzivligi va undan barchaning foydalana olishini ta'minlash;

• Inson huquqlari sohasida axborot-ma'rifiy faoliyatining sifati hamda manzilligini yaxshilash;

• Davlatlararo munosabatlarni, xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini uyg'unlashtirish, inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomaviy organlarning tavsiyalarini sifatli va o'z vaqtida bajarish maqsadida innovatsion tamoyillarni joriy etish;

• BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'ziligiga O'zbekiston Respublikasi saylanishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Darhaqiqat amalga oshirilgan ishlar o'z samarasini bermoqda ham. 2020-yil 13-oktabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh

assambleyasida O'zbekiston BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashiga ko'pchilik ovoz bilan tarixda birinchi marta uch yillik muddatga saylandi. O'zbekistondan tashqari ro'yxatdan Boliviya, Xitoy, Kot-d'Ivuar, Gabon, Kuba, Fransiya, Malavi, Meksika, Nepal, Pokiston, Rossiya, Senegal, Ukraina, Buyuk Britaniya o'rin olgan. Inson huquqlari bo'yicha kengash

2006 yilda ta'sis etilgan. BMT Bosh assambleyasi organi hisoblangan ushbu kengashga 47 ta davat a'zo hisoblanadi. Kengash a'zolari uch yillik muddatga yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 3 noyabrda 685-son qaroriga muvofiq «Inson huquqlari himoyasi uchun» ko'krak nishoni to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Ko'krak nishoni bilan taqdirlanganlarga bazaviy hisoblash miqdorining to'rt baravari miqdorida biryo'la to'lanadigan pul mukofoti berilishi belgilandi. Mazkur ko'krak nishonini ta'xis etilishidan maqsad inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda katta hissa qo'shgan fuqarolar va tashkilotlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish hamda taqdirlash, bu faoliyatni amalga oshirishda o'rnak bo'layotganlar namunasini, ularning tajribasini ommalashtirishdan iborat.

Ko'krak nishoni bilan inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdagi xizmati, inson huquqlarini targ'ib qilishdagi faolligi, inson huquqlari sohasidagi ta'lim, yoshlar o'rtasida inson huquqlarini himoya qilish an'alarini rivojlantirishga qo'shgan hissasi, inson huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlarni rivojlantirish va boshqarishdagi salmoqli yutuqlari, inson huquqlari sohasidagi samarali ilmiy faoliyati uchun O'zbekiston fuqarolari taqdirlanadi.

Bu bilan davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolarning inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatini kuchaytirish nazarda tutilgan.

Yuqorida takidlanganidek, inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiyada asosiy yo'nalishlar belgilab berilgan. Shu qatorda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida bu borada mas'uliyatni yanada kuchaytirish zamon talabiga aylanmoqda.

Ichki ishlar organlarini shaxsning huquqiy maqomini kafolatlash mexanizmidagi o'rni, ularning faoliyat usullari, vazifalarni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan ta'sir vositalari bilan belgilanadi. Boshqa davlat boshqaruv organlarida bo'lgan kabi, ichki ishlar organlarida ishontirish va majburlash asosiy usullar sanaladi. Ularning umumiy ijtimoiy maqsadi – davlat ichki ishlar boshqaruvi sohasida muayyan fuqarolar va boshqa shaxslarning qonunda belgilangan xulq-atvoriga faol hamda samarali ta'sir qilishdan iborat. Ishontirish – ichki ishlar organlarining faoliyat usuli sifatida kishilarda ongli huquqiy xulqatvorda bo'lish hissini uyg'otish, huquqqa qarshi harakatlardan o'zini tiyish, normativ hujjatlarga, ayniqsa, jinoyat-huquqiy, ma'muriy-huquqiy sohalardagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ hujjatlarga qat'iy amal qilishga da'vat yetish maqsadida ularning irodasi va ongiga ta'sir ko'rsatishdan iborat. Bunday ta'sir ko'rsatish ma'naviy, huquqiy tarbiyada, tashkiliy-ommaviy tadbirlar o'tkazishdagi rag'batlantirish hamda boshqalarda ifodalanishi mumkin. Ushbu usulning birinchi galdagi vazifasi – kishilarning umumiy huquqiy madaniyati darajasini oshirish va shunga muvofiq tarkibiy qism sifatida zarur huquqiy bilimlar berish, to'g'ri xulq qoidalarini shakllantirish, u yoki bu subyektiv huquqlarni tegishli ravishda amalga oshirish amaliy ko'nikmasini hosil qilishdir. Huquqni muhofaza qilish idoralari, shu jumlada ichki ishlar organlari xodimlarining amaliy faoliyati aholiga qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlashga, huquqbuzarlikka qarshi kurash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga oid huquqiy siyosatni tushuntirishdan iborat bo'lmog'i darkor .

Ichki ishlar organlari tomonidan inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi vazifalari quyidagilardan iborat:

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish;

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari amalga oshirishda ularga yaqindan ko'maklashish;

- fuqarolarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini buzuvchi, ularga zarar yetkazuvchi holatlarni aniqlash, kelib chiqish sabab va sharoitlarini o'rganish, ularni oldini olish hamda ularga barham berish;

- fuqarolar huquqlarining har qanday ko'rinishdagi buzulishiga yo'l qo'ymaslik;

- jinoyatchilik va huqubuzarliklarga qarshi kurashish, ularni oldini olish bo'yicha samarali mexanizm va chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

- jamiyatda tinchlik va barqarorlik o'rnatish, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash;

- fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularda qonunga hurmat va itoatkorlik ruhini shakllantirish;

- fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda ularning murojaatlari (ariza, taklif va shikoyatlari)ning amaldagi qonunchilik asosida ko'rib chiqishi;

- ichki ishlar idoralari va sohaviy xizmatlari faoliyatida, fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda qo'llanilayotgan inson huquqlari va erkinliklari bilan bog'liq normativ hujjatlarni bugungi kun talablariga muvofiqlashtirish;

- inson huquqlarini himoya qilish sohasida xodimlarning huquqiy bilimlarini oshirish;

- inson huquqlarini himoya qilish institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha amaliy tadbirlar amalga oshirish;

- xodimlar tomonidan qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilib borish, qonunbuzulish sabablarini o'rganish hamda salbiy holatlarning oldini olish;

- ushbu sohaga doir xalqaro huquqiy normalar talablarini o'z vakolatlari doirasida bajarilishini ta'minlash;

- qonunchilikni mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni keng jamoatchilikka yetkazish. Ta'kidlash joizki, ichki ishlar organlari barcha sohaviy xizmatlarining asosiy maqsad va vazifalari, aslida, inson huquqlarini himoya qilish va ta'minlashga qaratiladi.

Ichki ishlar organlari tomonidan inson huquqlarini himoya qilishda asosiy o'rin egallovchi profilaktika inspektorlari tomonidan ushbu faoliyatni amalga oshirish qator xususiyatlarga ega. Shuni inobatga olgan holda profilaktika inspektorlari tomonidan fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni ta'minlash bo'yicha faoliyatini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Ichki ishlar organlari faoliyatida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyati ham shuni nazarda tutadi. Ichki ishlar organlarida tub islohotlarni boshlab

bergan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5005 sonli farmonida ham bu o'z ifodasini topadi. Jamiyatda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, inson huquq va erkinliklariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yanada rivojlantirish, aholi farovonligini yuksaltirish, huquqiy demokratik davlat qurish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlardan ko'zlangan maqsadlarga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo'yicha respublikada yaxlit huquqiy tizim yaratilgan bo'lib, unda ichki ishlar organlari muhim o'rin egallaydi.

O'tgan davr mobaynida ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish borasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ichki ishlar organlarining mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo'g'inini rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha salmoqli ishlar qilindi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar ichki ishlar organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishini ta'minlash, yurtimizda jinoyatchilikning o'sishiga yo'l qo'ymaslik imkonini berdi.¹⁵⁴

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi boshlig'i general-leytenant **B.A. Matlyubov** o'zining "**Profilaktika inspektori - xalq e'tiborida**" nomli o'quv qo'llanmasida quyidagicha fikr bildirgan:

"profilaktika inspektori o'ziga biriktirilgan ma'muriy hududda har qanday vaziyatda ham quyidagilarni bajarishga doimo tayyor bo'lishi zamon talabidir:

birinchidan, insonlarga o'z vaqtida va sifatli xizmat(yordam) ko'rsatishga; **ikkinchidan**, bugungi mavjud xavf-xatar va tahdidlarni to'la his qilgan, o'zi bajarayotgan xizmat faoliyatining muximligi va o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda jalb etilgan barcha kuch va vositalardan maqsadli hamda samarali foydalanishga; **uchinchidan**, fuqarolar bilan aniq maqsadli muloqotni tashkil etishga, mahalla faollari, jamoat tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni tashkil etish va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ijtimoiy sheriklikni yo'lga qo'yishga; **to'rtinchidan**, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish sohasidagi mutlaqo yangi taptibilani amaliy faoliyatida keng joriy etishga hamda ularning murojaatlarining ko'rib chiqishda rasmiyatchilik bilan yondashuvga yo'l qo'ymagan holda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga;

¹⁵⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва Қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5005 сонли фармони. 2017-йил 10-апрел.

beshinchidan, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash borasida olib borilayotgan ishlarning natijalari bo'yicha fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va aholi oldida muntazam ravishda hisobot berishga; **oltinchidan**, har bir huquqbuzarlik va hodisalarning sabablari va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlashga, tahlil qilishga va ularni bartaraf etish choralarini ko'rishga hamda fuqarolarda qonunga hurmat, qonun buzulishining har qanday ko'rinishiga murossasizlik tuyg'usini shakllantirishga; **yettinchidan**, voyaga yetmaganlar va yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash, ularni terrorizm, diniy ekstremizm, zo'ravonlik, shafqatsizlik va boshqa har qanday ko'rinishdagi yot buzg'unchi g'oyalardan himoya qilish borasidagi ishlarni tizimli ravishda tashkil qilishga; **sakkizinchidan**, tizimli va belgilangan tartib hamda talablar asosida, shuningdek mustaqilravishda kasbiy, shu jumladan xizmat, jismoniy va jangovar tayyorgarligini oshirib borishga, tizimga yangi innovatsion g'oyalar, axborot-kommunikatsiya hamda boshqa zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga va h.k."¹⁵⁵

Bundan tashqari mazkur farmon ijrosini ta'minlashga qaratilgan va uning mantiqiy davomi hisoblangan bir qator normativ hujjatlarda belgilangan yo'nalish va vazifalarga muvofiq, ushbu faoliyatni takomillashtirishda quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish muhim: □ Profilaktika

inspektorlarining aholi bilan yaqindan hamkorligini ta'minlash;

➤ Profilaktika inspektori tomonidan fuqarolarning ariza, taklif, shikoyat ko'rinishidagi murojaatlari bilan ishlashda, ya'ni, ariza, taklif, shikoyatlarni qabul qilish, ko'rib chiqish va hal etishda samarali tizimni joriy etish;

➤ Fuqarolar huquqlarini ta'minlashni amalga oshirishda profilaktika inspektoriga boshqa jamoat tashkilotlarini yaqindan yordam ko'rsatishini ta'minlash;

➤ Profilaktika inspektorining ushbu faoliyatni amalga oshirishda samaradorlikni ta'minlash maqsadida sohaviy xizmatlar, boshqa davlat organlari, jamoat tashkilotlari hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorligini tashkil etishda aniq majburiyatlar, chegaralarni belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish;

➤ Profilaktika inspektori tomonidan fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni ta'minlash bo'yicha faoliyatini amalga oshirishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratishi va bunda avvalo mahalla va boshqa jamoatchilik tuzilmalari, shu bilan birga OAV bilan hamkorlikni amalga oshirish;

➤ Profilaktika inspektorining bevosita o'z ma'muriy amaliy faoliyati, shuningdek qonunchilikka muvofiq uning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda vujudga keladigan turli vaziyatlarda ro'y beradigan salbiy oqibatlarini oldini olish;

¹⁵⁵ Б.А. Матлюбов. Профилактика инспектори – халқ эътиборида. – Т., 2018. – Б 12-13.

➤ Xodimlarni bevosita o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini, fuqarolar bilan amalga oshiradigan muloqotida o'zini ijobiy tomondan namoyon qiluvchi, qisqa kilib aytganda, zamonaviy, malakali yetuk kadrlar tayyorlash izchil takomillashtirib borish;

➤ O'zining ma'muriy faoliyati bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirishda profilaktika inspektorining vakolatlari doirasini kengaytirish.

Yana bir o'zgarish shuki, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining tashkil etilishi ham profilaktika inspektori faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, endilikda fuqarolar yig'ini raisi besh yil muddatga saylanadigan, profilaktika inspektorlari besh yilga tayinlanadigan bo'ldi. Shunga mos ularning vakolatlari va mavqei oshirildi. Eng muhimi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda profilaktika inspektorlari boshqa davlat organlari va tashkilotlarining vakolatlarini takrorlovchi, ortiqcha va xos bo'lmagan vazifa va funksiyalarning bir qanchasidan ozod qilindi. Shuningdek, fuqarolar yig'ini raisining huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimi joriy etilib, bu vazifani bajarish profilaktika (katta) inspektori zimmasiga yuklatildi. O'z o'rnida, fuqarolar yig'ini raisining huquqtartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari — yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchi "Fidokor yoshlar" jamoatchilik patrul guruhi faoliyatini tashkil qilish va muvofiqlashtirishga mas'ul bo'ldi. fuqarolar yig'ini raisining huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimi joriy etilib, bu vazifani bajarish profilaktika (katta) inspektori zimmasiga yuklatildi. O'z o'rnida, fuqarolar yig'ini raisining huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari — yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchi "Fidokor yoshlar" jamoatchilik patrul guruhi faoliyatini tashkil qilish va muvofiqlashtirishga mas'ul bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi **Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Po'lat Bobojonov**ning Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligining tashkil etilishi yuzasidan Pravda vostoka nashriga bergan intervyusida quyidagi fikrlarni keltirib o'tdi: — Davlatimiz rahbari jamiyatda tinch-lik-osoyishtalikni asrash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor -qaratib kelmoqda. Mahalla va oilani qo'llabquvvatlash vazirligining tashkil etilishi oila, xotin-qizlar va keksalarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish bilan birga, ushbu tuzilmalarning yaqin hamkorlikda faoliyat yuritishini ta'minlashga xizmat qiladi. Mahalla tuzilmasining boshqa idoralar bilan hamkorligi yaxshi yo'lga qo'yilmagani, xotin-qizlar, yoshlar va keksalarni ijtimoiy qo'llabquvvatlashning yaxlit tizimi mavjud emasligi, oila, turmush doirasidagi masalalarga yuzaki qaralgani ko'p hollarda oilalar va mahallalarda turli notinchliklarga sabab bo'lgan. Aholini qiynayotgan oddiy muammolar joylarda hal etilmaganidan keyin ildiz otib, turli tushunmovchiliklarga, fuqarolarning ovoragarchiliklariga sabab bo'lgan. Bu esa huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo'yicha hududlarda amalga oshirilayotgan ishlarga ham putur yetkazib, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish va qonun ustuvorligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatgan.